

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

FHDYO VA SUD TOMONIDAN NIKOHDAN AJRATISH JARAYONI

Isakova Xulkaroy Gopporovna

Fuqarolik ishlari bo'yicha

Izboskan tumanlararo sudi sudyasi

Annontatsiya:

Ushbu maqolada nikohdan ajratish tushunchasi, uni FHDYo organi yoki sud orqali amalga oshirish, sud tomonidan e'tiborga olinishi lozim bo'lgan tomonlar, da'vo arizasiga qo'yiladigan talablar va davlat boji to'g'risida so'z borgan.

Kalit so'zlar: nikoh, nikohdan ajratish, FHDYo, da'vo ariza, davlat boji, guvohnoma, mediatsiya.

KIRISH

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ko'riladigan ishlarning keng tarqalganlaridan biri bu nikohdan ajratish. Umuman olganda O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga binoan nikohdan ajratishni FHDYo organi yoki sud orqali amalga oshirish mumkin.[1] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 76-moddasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi, nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishi, davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi kafolatlanganligi bois nikoh-oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rishda sudlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.[2]

MATERIAL VA METODLAR. Er-xotindan biri:

- sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;
- sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;
- sodir qilgan jinoyati uchun 3 yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga etmagan umumiy bolalari bor-yo'qligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra FHDYo organlarida nikohdan ajratish qayd etiladi.[3]

Bunda FHDYo organiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- er (xotin)ning muomalaga layoqatsiz yoxud bedarak yo‘qolgan deb topilganligi to‘g‘risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori
- er (xotin) 3 yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to‘g‘risida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmidan ko‘chirma, shuningdek sudlangan er (xotin)ning o‘rtadagi bolalari va mol-mulki yuzasidan nizosi yo‘qligi to‘g‘risidagi tilxat.

FHDYo organi mulkiy nizolari hamda voyaga etmagan farzandlari bo‘lmagan er-xotinlardan nikohdan ajratish to‘g‘risidagi arizani qabul qiladi. Alohida yashovchi er-xotinni nikohdan ajratishni qayd etish ularning birgalikda bergan arizalariga asosan, ulardan birining yashash joyidagi FHDYo organi tomonidan amalga oshiriladi. Agar er-xotindan biri nikohdan ajralish to‘g‘risidagi arizani berish uchun FHDYo organiga kela olmasa, u holda er-xotin nomidan birgalikda yozilgan arizani ulardan biri topshirishi mumkin. Kela olmagan er yoki xotinning arizadagi imzosi notarial tartibda yoki er-xotin yashab turgan joydagi FHDYo organi mudiri tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Nikohdan ajratishni qayd etish er-xotinning yoki ulardan birining ishtirokida nikohdan ajratish haqida FHDYo organiga ariza bergan kundan keyin 3 oy o‘tgach amalga oshiriladi va sobiq er-xotinlarning har biriga nikohdan ajralganlik haqida guvohnoma beriladi. Er yoki xotindan birining nikohgacha bo‘lgan familiyasiga qaytishi to‘g‘risidagi istagi nikohdan ajratish haqidagi arizasida ko‘rsatilishi kerak. OK 42-moddasi ikkinchi qismi va 43-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan barcha hollarda nikohdan ajratish sud tartibida amalga oshiriladi.

TADQIQOT NATIJALARI. Nikohdan ajratish masalasi FHDY organlari vakolatiga taalluqli bo‘lgan ayrim hollarda ham u sud tartibida amalga oshirilishi mumkin, chunonchi, agar er-xotindan biri nikohdan ajratish to‘g‘risida ariza berishdan bosh tortsa yoki FHDY organiga ariza berish uchun shaxsan kelish imkoniyatiga ega bo‘lmasa yoxud ariza berib, nikohdan ajratishni qayd etish uchun hozir bo‘lmasa. Bunday holatlar mavjudligi FHDY organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ma’lumotnomalari va h.k.lar bilan tasdiqlanishi mumkin. Shuni nazarda tutish lozimki, OK 43-moddasi birinchi qismida belgilangan nikohdan FHDY organlarida ajratish tartibi spirtli ichimliklar, narkotik vositalar yoki psixotrop moddalarni suiiste’mol qilishi oqibatida muomala layoqati cheklangan shaxslar bilan nikohdan ajratish hollariga tatbiq etilmaydi. Bunday



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

shaxslarga nisbatan berilgan, shuningdek bunday shaxslar tomonidan berilgan da'volar bo'yicha nikohdan ajratish sud tartibida amalga oshiriladi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi da'vo arizasini qabul qilishda shuni inobatga olish lozimki, Oila kodeksining 39-moddasiga muvofiq er xotining roziligisiz uning homiladorligi vaqtida va bola tug'ilganidan so'ng bir yil mobaynida nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga, garchi u tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftarida bolaning otasi sifatida yozilmagan bo'lsa ham, haqli emas. Mazkur qoida bola o'lik tug'ilgan yoki bir yoshga to'lmay vafot etgan hollarga ham tatbiq etiladi.

Xotinning nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga roziligi bo'lmagan hollarda, sudya da'vo arizasini qabul qilishni rad etadi, agar u qabul qilingan bo'lsa, sud FPK 122-moddasining 8-bandiga asosan arizani ko'rmasdan qoldiradi[4]. Nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza xotinning roziligi bilan qo'zg'atilgan ishni sud majlisida ko'rish vaqtida u nikohdan ajratishga e'tiroz bildirganda, shuningdek javobgarning homiladorligi va uning nikohdan ajratishga roziligi yo'qligi ishni apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasida ko'rish vaqtida ma'lum bo'lganda ko'rmasdan qoldirilishi lozim. Sudlarga tushuntirilsinki, nikohdan ajratish to'g'risidagi da'volar, qoida tariqasida, javobgarning doimiy yashash joyidagi sudga, FPK 34-moddasida nazarda tutilgan hollarda esa, da'vogarning xohishi bo'yicha taqdim etiladi. Xususan, nikohdan ajratish to'g'risidagi da'vo:

jazo muddatidan qat'i nazar, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs bilan (agar ish sudning sudloviga taalluqli bo'lsa) — mazkur shaxsning sudlangunga qadar oxirgi yashash joyida;

yashash joyi noma'lum bo'lgan shaxs bilan-uning ma'lum bo'lgan oxirgi yashash joyida yoki uning mol-mulki turgan joyda, da'vogar voyaga yetmagan bolalari borligi yoki salomatligi tufayli javobgarning yashash joyiga borishga qiynalgan hollarda esa,-da'vogarning yashash joyida;

TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI. O'zbekiston Respublikasida yashash joyiga ega bo'lmagan yoki mamlakatdan chiqib ketgan shaxs bilan uning mol-mulki turgan joyda yoki O'zbekiston Respublikasida ma'lum bo'lgan oxirgi yashash joyida taqdim etilishi mumkin.

Bir yil davomida yashash joyi haqida ma'lumot bo'lmagan shaxsga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo bilan murojaat qilinganda, sudya da'vogarga fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish tartibini tushuntiradi (FK 33-moddasi).



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Shu bilan birga, agar er yoki xotindan biri ikkinchisini bedarak yo‘qolgan deb topish haqida ariza berishdan bosh tortsa, sudya da’vo arizasini qabul qilishni rad etishga haqli emas, sud esa, nikohdan ajratish haqidagi da’voni umumiy asoslarda ko‘rishga majbur.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini chet el fuqarolari bilan tuzilgan, chet el fuqarolarini o‘zaro tuzilgan nikohdan ajratish, shuningdek mazkur shaxslarning oilaviy-huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa nizolar Oila kodeksining 9-moddasi hamda VIII-bo‘limida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Nikohdan ajratish to‘g‘risidagi da’vo arizasi FPK 189 va 190-moddalari talablariga javob berishi kerak. Unda, jumladan nikoh qachon va qayerda rasmiylashtirilganligi, nikohdan bolalar bor-yo‘qligi, ularning yoshi, er-xotin o‘rtasida voyaga yetmagan bolalarni ta’minoti va tarbiyasi haqida kelishuvga erishilgan-erishilmaganligi, nikohdan ajratish sabablari, nikohdan ajratish haqidagi da’vo bilan birga ko‘rilishi mumkin bo‘lgan boshqa talablar ko‘rsatiladi.[5]

XULOSA. Nikohdan ajratish haqidagi arizaga nikoh tuzilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, bolalar tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxalari, er-xotinning oylik maoshi va o‘zga daromadlari haqidagi, davlat boji va pochta xarajatlari to‘langanligi to‘g‘risidagi hujjatlar, da’vo talablarini tasdiqlovchi dalillar, shuningdek nikohdan ajratish haqidagi nizo sudgacha hal qilinganligidan dalolat beruvchi da’vogarning yashash joyidagi fuqarolar yig‘ini yarashtirish komissiyasining xulosasi ilova qilinadi. Davlat boji nikohdan ajratish haqidagi da’vo arizalaridan BHM ning 2 barobari, takroriy nikohdan ajratish haqidagi da’vo arizalaridan BHM ning 4 barobari, bedarak yo‘qolgan va ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi oqibatida belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoki kamida uch yilga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar bilan nikohni bekor qilish haqidagi da’vo arizalaridan BHM ning 2 foizi miqdorida undiriladi. Nikoh bekor qilinayotganda mol-mulk bo‘lingan taqdirda, boj da’voning bahosining 4 foizi miqdorida, biroq BHMning 1 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda muvofiq belgilanadi.[6]



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi:-Toshkent.:“Yuridik adabiyotlar publish”,2022 y. - 208 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.:-"O‘zbekiston",2023.-128 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.10.2023 yildagi 550-son “Nikoh, oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”qarori
4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-3517337>
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 20.07.2011-yildagi 06-son “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida” qarori, <https://lex.uz/docs/2414114>
6. “Davlat boji to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.01.2020 yildagi O‘RQ-600-son.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES